

MUALLIF USLUBI VA UNI TARJIMADA AKS ETTIRISH USULLARI

Choriyeva Shaxnoza Shuxratovna
O'zDJTU, Tarjimonlik fakulteti,
Ingliz tili tarjima nazariyasi kafedrasи
katta o'qituvchi, PhD

Annotatsiya. Mazkur maqola badiiy asarlarni ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda muallif uslubi, uning mahoratini saqlab qolish va o'quvchiga yetkaza olish, shuningdek, tarjima jarayonida yuzaga keladigan tarjima muammolari va ularning masalasiga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: tarjima, ingliz tili, o'zbek tili, intermatn, muallif, uslub, mahorat, she'r.

Abstract. This article is devoted to the author's style, preserving his skill and conveying it to the reader in translating literary works from English to Uzbek, as well as problems that arise in translation process.

Key words: translation, English, Uzbek, intertext, author, style, skill, poem.

Аннотация. Данная статья посвящена сохранить стиль автора при переводе художественных произведений с английского на узбекский язык, умению сохранить его мастерство и передать его читателю, а также переводческим проблемам, возникающим в процессе перевода, и их проблемам.

Ключевые слова: перевод, английский язык, узбекский язык, интертекст, автор, стиль, мастерство, стихотворение.

Muallif uslubi va yozuvchining yozish mahorati adabiy jarayonning doimiy o'rganilish talab qiluvchi sohasi bo'lib qolaveradi. Chunki ijodkor tegishli jamiyat sabab asarlardagi makon va zamon o'zgarishidagi o'ziga xos xususiyatlar yozuvchining uslubi va badiiy mahoratiga ham sezilarli ta'sir o'tkaza oladi. G'.Salomov muallif uslubiga shunday ta'rif beradi: "Muallif uslubi deganda biror bir muallifning muayyan bir davrda yaratgan asarlarida doim uchrab turadigan yoki uning butun ijodiga xos asosiy unsurlar majmuasi tushuniladi" [2; 66].

Badiiy asar malaka, mahorat va iste'dod orqali maydonga keladi. Agar bir ijodkorda mana shu xususiyatlarning hammasi mujassam bo'lsa, bunday holatni ijod jarayonidagi eng noyob, eng oliy hodisa sifatida baholash mumkin. Lekin adabiy-tarixiy jarayon shuni ko'rsatadiki, badiiy asarni faqat oliy darajadagi iste'dodlargina yaratmaydi. Badiiy asar ustida qilingan uzoq va mashaqqatli mehnat, tinimsiz qayta ishslash jarayonlari malaka va mahoratni shakllantiradi, o'ziga xos uslubni barpo etadi. Boshqalarning xayoliga ham kelmagan badiiy kashfiyotlar, estetik qamrovning tasavvur qilib bo'lmaydigan darajada kengligi, tasvirning favqulodda o'ziga xosligi, estetik idealning samoviyligi, obrazlar talqinidagi originallik malaka va mahorat bilan birga, iste'dod tabiatning ilohiy mohiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. [4; 12]

Tarjimon biror bir asarni tarima qilarkan, xuddi talantli yozuvchi kabi katta hayot tajribalariga ega bo'lganidagina, uning tarjimadagi so'zi yozuvchi so'zidek tiniq, shirali, aniq-ravshan chiqadi. Bunda Navoiyning o'sha mashhur "ravshan alfoz va

ochuq ado” haqidagi benihoya oqil so‘zi yoddan chiqmasligi kerakka o‘xshaydi. Tarjimon xuddi yozuvchi kabi narsa-hodisalar, inson ruhiyati to‘g‘risida keng tasavvurlar va fantaziya qobiliyatiga ega bo‘lgandagina, qobiliyat teran bilimlar bilan quvvatlangandagina uning ijodi ishonchli, tushunarli, yuksak badiiy ifodaviylik va ta’sirchanlik kasb etadi. [1; 116]

Tarjima qilinadigan muallif va uning asari bilan tarjimon o‘rtasida ham shunday til topishish bo‘lishi zarur. Bunda til topish deganda muallifning o‘ziga xosliklarini va muayyan asarning badiiy xususiyatlarini teran anglash va shunga yarasha jarayonni tashkil etishni tushunamiz. Tarjima qilinadigan muallif va uning asarini tarjimon sevgandagina, uning o‘z o‘quvchisiga katta ma’naviy foyda keltirishini bilgandagina til topish juda katta ijodiy foyda keltiradi.

Muallif uslubi, badiiy mahoratini, shuningdek tarjimon mahoratini R.Oldingtonning “Qahramonning o‘limi” romani misolida tahlil etamiz. Romanining so‘nggi ya’ni beshinch qism – epilogi e’tiborga loyiq bo‘lib, Oldington birinchi jahon urushi tasvirlarini o‘z ichiga olgan asarini “Troya urushi” haqidagi she’r bilan yakunlaydi.

*Eleven years after the fall of Troy,
We, the old men – some of us nearly forty
Met and talked on the sunny rampart*

Nega yozuvchi aynan Troya urushini intermatn sifatida asarga olib kirishi sabablari biroz anglashilmovchilikni yuzaga keltirsada, maqsadlarini va badiiy niyatini anglashda muhim rol o‘ynaydi. Ilk misralardanoq she’rdagi voqealarning Troya urushi tugaganidan keyin o‘n bir yil o‘tib sodir bo‘lganligiga ishora beriladi. Ushbu she’rning yozilish tarixiga nazar solsak, Oldington 1929-yilda ushbu she’rni ijod qilgani ma’lum bo‘ladi. Ya’ni Birinchi jahon urushi tugagach, o‘n bir yil o‘tib shoir o‘y-hayollarida saqlanib qolgan hodisalar tilga olinadi. Shu misraning o‘zidan ayonki Troya urushi bu Birinchi jahon urushi, ammo oradan o‘n bir yillik davr o‘tgan bo‘lsada u bilan aloqador xotiralar, o‘y kechinmalar she’r qahramonini tark etmaganligini ham fojianing davomi sifatida tushunish mumkin va quyidagicha tarjima qilish mumkin.

*Qirqqa yaqinlashgan biz mo ‘ysafidlar,
Troya qulagach o‘n bir yil o‘tib
Quyoshli qo ‘rg‘onga keldik ko ‘rishib.*

Oldington o‘zi va urushda qatnashgan tengdoshlarini endi qirqqa yaqinlashayotgan bo‘lsalar-da “We, the old men – some of us nearly forty) deb ataydi. Er-yigitning qirq yoshi ayni kuchga to‘lgan davri bo‘lsada, urush ko‘rgan erkaklar uchun qariyalik sanalishaning bir qancha faktorlari bor edi. Urushga ketgan yosh yigitlar, undan ham ruhan va ham jisman zaif bo‘lib qaytganlari, bir odam umri davomida ko‘rishi mumkin bo‘lgan jasadlarning ortig‘i bilan guvohi bo‘lganliklari, o‘lim bilan yuzlashib, tirik qaytganliklari kabi sabablar er-yigitlarning qariyalar siyosida gavdalanganliklariga asosiy sabablar bo‘la oladi. Tarjimon shu o‘rinda muallifni nimani nazarda tutganini hisobga olib, “We, the old men” iborasini “biz, moy safidlar” deya tarjima qilishi lozim.

“Over our wine, while the lizards scuttled,

In dusty grass, and the crickets chirred”

Sharobida kaltakesak, maysazorida chigirtka kabi xashoratlarning keltirilishi birinchidan “sovuqlik” ma’nosini anglatsa, ikkinchidan ushbu xasharotlarga nisbatan jirkanish, yoqimsizlik, umuman olganda salbiylik munosabatini shakllantiradi. Muallifni nazarda tutganlarini hisobga olib, quyidagicha tarjima qilindi:

Kaltakesaklar sharobimiz uzra chayqalar suzib,

Chang o'tlar ustida, chigirtka chiyillar cho'zib.

Troya urushi va Birinchi jahon urushi o‘rtasidagi parrallel munosabatlarga nazar solsak, ularda bir qancha umumiylklarni kuzatish mumkin.

Ijodiy hafsalal zo‘r bo‘lgandagina tarjimada jonlanish ro‘y beradi. Mukammal tarjimaga bilimlar va tajriba alohida ahamiyatga ega. Asarni oldindan chuqr o‘rganish, lug‘atlarni ko‘rish, turli qo‘srimcha materiallarga murojaat etish va izohlar tayyorlashdan ortiq, bunga teng keladigan narsa yo‘q. Tarjimon xuddi yozuvchi kabi narsa-hodisalar, inson ruhiyati to‘g‘risida keng tasavvurlar va fantaziya qobiliyatiga ega bo‘lgandagina, qobiliyat teran bilimlar bilan quvvatlangandagina uning ijodi ishonchli, tushunarli, yuksak badiiy ifodaviylik va ta’sirchanlik kasb etadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. I.G ‘ofurov, O ,M o ‘minov, N.Qambarov. Tarjima nazariyasi: Oliy o ‘quv yurtlari uchun o‘quv qo’llanma / Tafakkur-Bo‘stoni. - Toshkent: 2012. 216 b.
2. G‘. Salomov. Tarjima nazaryasi asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1983. – B. 66.
3. Sh.Sh.Choriyeva. Ingliz “Yo‘qotilgan avlod adabiyotida ayollar obrazining badiiy o‘ziga xosligi (Richard Oldington va Vera Britten asarlari misolida): Filol. Fan. Bo‘y. fal. D-ri (PhD) diss. ... -Toshkent, 2023. –B. 121.
4. Д.Э. Холдаров. Ҳозирги ўзбек қиссаларида бадиий услуг муаммоси (Шойим Бўтаев ва Назар Эшонқул қиссалари мисолида): Филол. фан. бўй. фал. д-ри (PhD) дисс. ... – Тошкент, 2017. – 12-б.
5. <https://www.oriens.uz/media/conferencearticles>